

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA PEDAGOGIK MAS'ULIYATNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

F.F. Xalilov

Alfraganus universiteti

(PhD) v/b dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14917618>

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish asosida pedagogik mas'uliyatni shakllantirish metodikasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, mas'uliyat, metodika, ta'lim, tarbiya, kasbiy kompetensiya, zamonaviy ta'lim, kasbiy faoliyat, ijodiy faoliyat.

Аннотация: в данной статье рассматривается методика формирования педагогической ответственности на основе развития профессиональной компетентности будущих учителей.

Ключевые слова: компетентность, ответственность, методика, образование, подготовка, профессиональная компетентность, современное образование, профессиональная деятельность, творческая деятельность.

Abstract: this article discusses the methodology of pedagogical responsibility formation based on the development of professional competence in future teachers.

Key words: competence, responsibility, methodology, education, training, professional competence, modern education, professional activity, creative activity.


Bo'lajak o'qituvchilar o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritishlari kerak? Aslida kompetentlikning o'zi nima? Kompetentlikning o'zagida nimalar aks etgan? Mas'uliyat nima? Uning qanday turlari bor? Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirish usullari qayday? degan savollar yuzasidan mazkur bobda so'z yuritmoqchimiz.

Ingliz tilida "*competence*" so'zi lug'aviy ma'noda "qobiliyat" so'zini ifodalaydi. Mazmuni esa "insonning individual salohiyati va imkoniyatlari"ni yoritish xususiyati tushuniladi.

Psixologik ilmiy-tadqiqot ishlarning natijasi va keltirilgan fikrlar tahlili asosida "kompetentlik" tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashtirish imkoniga ega bo'ldik. Psixologik jihatdan bu tushunchaga "notanish vaziyatlar va holatlarda mutaxassis o'zini tuta bilishi, mazmunli muloqot qurishi, o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan tushunmovchiliklarda yangi yo'l bilan yechim topishi, noaniq, ziddiyatli ma'lumotlardan foydalanishda, izchil taraqqiy etib boruvchi va murakkab jarayonlarda o'zini harakatlanish pozitsiyasiga egalik"ni anglatishi keltirilgan.

Kompetensiya mutaxassis tomonidan bilimlarni doimo rivojlantirib, takomillashtirib borishi, yangi axborotlarni egallashi, ijtimoiy munosabatlarni chuqur anglashi, kundalik axboriy ma'lumotlarni qidirib topish, ularni faoliyatda qo'llay olishni taqozo etadi. Xullas, kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassis davr talabini chuqur his etadi, yangi bilimlarga intilib, topib, ularni qayta ishlab o'z amaliyotida samarali qo'llaydi.

Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasi va pedagogik mas'uliyatining o'zaro aloqadorligi va bir-biriga bog'liq jihatlari quyidagicha tasniflanadi.



Kasbiy kompetensiya va pedagogik mas'uliyatning o'zaro aloqadorligi

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga kompetentli yondashuv ularning o'z shaxsiy manfaatlarini uchun ham, kasbiy faoliyatlari uchun ham olib boradigan faoliyatining asosiy sohalaridagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi bilimlar va amaliy faoliyat usullarini kompleks ravishda o'zlashtirishiga qaratilgan. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy sifatleri shakllanishi o'qitish jarayonida shaxsiy-ijodiy faoliyatining faolligi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan. Oliy ta'lim tizimida zamonaviy o'qitishning eng muhim vazifasi bo'lajak o'qituvchilarning kasbi bo'yicha xabardorligini shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratishdir. Ijodiy faoliyat uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rish, eruditsiyani, kompetensiyalarni talab qiluvchi faoliyat hisoblanadi.

1-bosqichda, talabalarning pedagogik mas'uliyatini shakllantirishga kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy qadriyatlarga tayanish holati tahlil qilindi.

2-bosqichda, oliy pedagogik ta'lim o'qituvchilari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Ular quyidagi yo'nalishlarda olib borildi:

1. Professor-o'qituvchilarning talabalarda mas'uliyat xissini orttirishda qaysi kompetensiyalar ustuvor ekanini haqidagi tushunchaga ega ekanini aniqlash.
2. Bo'lajak o'qituvchi uchun muhim bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda qadriyatli yondashuv zarurligini qay darajada anglashini baholash.

3. Oliy ta'lim amaliyotida bo'lajak o'qituvchi tayyorlashda ularni kasbiy mas'uliyati yuqori bo'lishiga qay darajada e'tibor qaratishini aniqlash.

4. O'qituvchilarning mavzularni o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mas'uliyat va javobgarlikni oshirishga oid bilimlarini umumlashtirgan holda maqsadli yondashish holatini o'rganish.

5. Dars mashg'ulotlarida zamonaviy yondashuvlarga asoslanib, talabalarda kasbiy mas'uliyatni oshirishga qaratilgan ta'limiy topshiriqlardan foydalanish holatini aniqlash.

6. Oliy ta'lim o'qituvchilarini bo'lajak mutaxassislarni kasbga samarali tayyorlash mezonlaridan biri sifatida mas'uliyatni o'zlashtirishlarida unga yo'naltirilgan savol va topshiriqlardan foydalanishini tahlil qilish.

3-bosqichda, bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi. Ularda quyidagi mazmun aks etdi:

- talabalar kasbiy mas'uliyat tushunchasini qay darajada tahlil qiladilar;
- talabalarda o'zlari tanlab olgan kasbga nisbatan mas'uliyat qay darajada;
- talabalar mas'uliyat, erkinlik, burch, javobgarlik, vijdon kabi kasbiy sifatlar haqida qanchalik ma'lumotga ega ekani;
- talabalarda kasbga oid bo'lgan sifatlar shakllanganligi darajasi;
- talabalarining kasbiy javobgarlik ko'nikmalarini ifoda etuvchi topshiriqlarni bajarishga bo'lgan munosabatining shakllanganlik darajasi;
- talabalarining topshiriqlarni bajarish jarayoniga mas'uliyat bilan yondashishi;
- ustozlari va jamoadoshlari oldidagi mas'uliyatni his qilishi;
- jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda vijdonan ishtirok etishga intilishi va burchga sadoqatli bo'lishini o'rganish va tahlil qilish kabi muammolar aks etgan.

4-bosqichda, dastlabki olib borilgan so'rov natijalari tahlil qilindi.

Pedagogik mas'uliyat – ta'lim jarayonida pedagogning o'quvchilarning bilim, ko'nikma va tarbiyasini shakllantirishdagi mas'uliyatidir. Pedagogik mas'uliyat o'z ichiga quyidagi aspektlarni qamrab oladi:

1. Professionalizm: Pedagog o'z faoliyatida zamonaviy metodlar va texnologiyalarni qo'llash, bilimni to'g'ri berish usuliga ega bo'lish.

2. Etika: Pedagogning o'quvchilarga bo'lgan munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olib muloqot jarayonini tashkil etish.

3. O'zini-o'zi rivojlantirish: Pedagog o'z faoliyatini muntazam baholashi va samaradorligini oshirib borishi.

4. Mas'ullik: O'quvchilarning sifatli ta'lim olishidagi natijalar uchun javobgarlik.

5. Ijodkorlik: Yangi va samarali ta'lim metodlarini ishlab chiqish.

Pedagogik mas'uliyat, pedagogning ta'lim jarayonidagi roli va ta'sirini aniqlaydi. U o'quvchilarning kelajagini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik mas'uliyatning bir qator pedagogik xususiyatlari mavjud bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

- *o'qituvchining ta'siri*: o'qituvchi o'z bilimlari va ko'nikmalari orqali o'quvchilarga ta'sir o'tkazadi. U o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga va rivojlanishiga yordam beradi.
- *etik mas'uliyat*: o'qituvchilar o'quvchilarni tarbiyalashda axloqiy me'yorlarga amal qilishlari, adolatli va izchil bo'lishlari.

- *psixologik mas’uliyat*: o’qituvchilar o’quvchilarning psixologik holatini tushunishi va ularni qo’llab-quvvatlashi kerak. Bu, o’quvchilarning o’zini-o’zi anglashiga va rivojlanishiga yordam beradi.
- *ta’lim jarayonining individualligi*: har bir o’quvchi o’ziga xos xususiyatlarga ega, shuning uchun o’qituvchi ta’lim jarayonini individual ravishda rejalashtirishi va amalga oshirishi lozim.
- *natijalar uchun mas’uliyat*: o’qituvchi o’quvchilarning o’qishdagi muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklari uchun javobgarlikni o’z zimmasiga oladi. Ular o’quvchilarning natijalarini tahlil qilib, zarur choralar ko’rishadi.
- *o’qitish va tarbiyalashda innovatsiyalar*: o’qituvchilar yangi metodlar va texnologiyalarni qo’llab, o’quvchilarning qiziqishini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga intilishlari kerak.
- *hamkorlik va jamoaviylik*: o’qituvchilar, ota-onalar va boshqa ta’lim xodimlari o’rtasida hamkorlikni rivojlantirish mas’uliyati mavjud, chunki bu o’quvchilarning muvaffaqiyatiga ta’sir ko’rsatadi.

Ushbu xususiyatlar pedagogik mas’uliyatning asosiy jihatlarini tashkil etadi va ta’lim jarayonida muhim rol o’ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda maktablarda faoliyat olib borayotgan o’qituvchilardan tortib, to oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o’qituvchilargacha, ayniqsa bo’lajak o’qituvchilarda ham kasbiy kopetensiyalarini orttirish va mas’uliyatni his qilishlari borasida tizimli ishlash ehtiyoji mavjudligi sezilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари (ижтимоий-гуманитар йўналишидаги академик-лицейларда математика ўқитиш мисолид) Пед.фан.док. дис...автореф. Т.: - 2006. – 49 б.
2. Арипджанова А.Р. Развития креативного потенциала педагогов высших образовательных учреждений в условиях информатизации образования. Пед. фан. док. (PhD) дис... – Тошкент: 2017. – 179 б.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Т.: Молия, 2003. – 192 б.
4. Абдукаримов Х. «Профессиональное воспитание личности учителя в процесса непрерывного педагогического образования» Автореф.дисс. ... докт. пед. наук. –Т.: 1997. – 46 с.